



O‘ZBEKISTON PREZIDENTINING BELARUSGA RASMIY TASHRIFI BOSHLANDI

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Mirziyoyev Belarus Respublikasi Prezidenti
Aleksandr Lukashenkoning taklifiga binoan 8-iyul kuni
rasmiy tashrif bilan Minsk shahriga keldi.**

Belarus poytaxtining xalqaro aeroportida davlatimiz rahbarini Belarus Respublikasi Bosh vaziri Aleksandr Turchin, tashqi ishlar vaziri Maksim Rijenkov hamda boshqa rasmiylar kutib oldi.

Oliy martabali mehmon sharafiga ikki mamlakat davlat bayroqlari ko‘tarildi va faxriy qorovul saf tortdi.

Davlatimiz rahbari Minsk shahriga kelgach, G‘alaba monumenti poyiga gulchambar qo‘ydi.

Harbiy orkestr ijrosida ikki davlat madhiyalari yangradi. Faxriy qorovul askarlari tantanal ravishda yurib o‘tdi.

Rasmiy tashrif doirasida Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Aleksandr

Lukashenko norasmiy uchrashuv o‘tkazdilar.

Belarus yetakchisi davlatimiz rahbarini samimiy qutlab, tashrif uchun minnatdorlik bildirdi. Prezidentlar bo‘ljak muzokaralar kun tartibi yuzasidan fikr almashdilar.

Tashrif arafasida bo‘lib o‘tgan tadbirlar, shu jumladan, ikki mamlakat ishbiarmon doiralari ishtirokidagi Hududlararo forum yakunlari yuqori baholandi.

Tashrifning asosiy tadbirlari 9-iyul kuni bo‘lib o‘tadi. Mustaqillik saroyida O‘zbekiston va Belarus yetakchilari muzokara o‘tkazdilar.

O‘ZA

Aleksandr OGORODNIKOV: “BELARUS VA O‘ZBEKISTON MUNOSABATLARI DO‘STONA VA O‘ZARO ISHONCHGA ASOSLANGAN”

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Minskka rasmiy tashrifi arafasida Belarus elchisi Aleksandr Ogorodnikov “Dunyo” AA muxbiriga eksklyuziv intervyu berdi.

— Janob elchi, so‘nggi yillarda O‘zbekiston va Belarus o‘rtasidagi hamkorlik barqaror ijobiy sur‘atni namoyon etmoqda. Bugungi kunda ikki tomonlama munosabatlarda erishilayotgan yutuqlar haqida fikr-mulohazalaringizni bildirishingizni so‘raymiz.

— So‘zimiz tarixdan boshlasam. Belarus Respublikasi birinchilardan bo‘lib

1993-yilda O‘zbekiston Respublikasi bilan diplomatik munosabatlar o‘rnatgan. Bugun hamkorligimiz qay darajaga ko‘tarilganini ko‘rib turibmiz. Belarus Prezidenti Aleksandr Lukashenkoning ilk rasmiy xorijiy tashrifi aynan O‘zbekistonga bo‘lgani ramziy ma‘noga ega.

▶ Davomi 2-beta

AZALIY HAMKORLIKNING ISTIQBOLLI UFQLARI



Nuqtayi nazar

Bugungi murakkab va tez o‘zgarayotgan xalqaro munosabatlar tizimida davlatlarning barqaror taraqqiyoti ko‘p jihatdan ishonchli hamkorlar bilan o‘rnatilgan mustahkam munosabatlarga bog‘liq. Ayniqsa, o‘zaro ishonch, tenglik va manfaatlar uyg‘unligiga asoslangan sheriklik nafaqat iqtisodiy taraqqiyotni ta‘minlaydi, balki xalqlar o‘rtasidagi ma‘naviy yaqinlikni mustahkamlab, uzoq muddatli hamkorlik uchun ishonchli poydevor yaratadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, O‘zbekiston va Belarus Respublikalari o‘rtasidagi munosabatlar so‘nggi yillarda mazmun va sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilib, ko‘p qirrali strategik sheriklikning yorqin namunasiga aylanmoqda.

O‘zbekiston azaldan turli millat va elat vakillari tinch-totuv, o‘zaro hurmat va bog‘rikenglik muhitida yashab kelayotgan ko‘p millatli mamlakat sifatida dunyo hamjamiyatida munosib o‘rin egallaydi. Bugun yurtimizda yuzdan ortiq millat va elat vakillari yagona Vatan ravnaqi yo‘lida bir tanu bir jon bo‘lib mehnat qilmoqda. Ular uchun milliy tili, madaniyati, urf-odatlari va an‘analarini asrab-avaylash,

rivojlantirish hamda kelgusi avlodlarga yetkazishga qaratilgan mustahkam huquqiy va tashkiliy asoslar yaratilgan.

Ana shu bag‘rikeng muhitda yashab kelayotgan belarus millati vakillari ham mamlakatimiz ijtimoiy hayotining ajralmas qismiga aylangan. Ular ilm-fan, ta‘lim, tibbiyot, sanoat, qishloq xo‘jaligi, tadbirkorlik, madaniyat va san‘at kabi sohalarda faol ishtirok etib,



yurtimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shmoqda. Bu esa ikki xalq o‘rtasidagi tarixiy yaqinlik va o‘zaro hurmatning amaliy ifodasidir.

So‘nggi yillarda yuritilayotgan ochiq va pragmatik tashqi siyosat O‘zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzini sezilarli darajada oshirdi. Dunyo mamlakatlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan mazkur siyosat

mustaqilligi, erkinligi yillar davomida shakllanib boradigan murakkab jarayondir. Shu ma‘noda, bitta jamiyatdagi shaxslar mustaqillikka turlicha vaqtda yetib keladi. Biz ham ana shu jarayonni boshdan kechirdik va bugun ishonch bilan ayta

olamizki, xalqimiz tom ma‘noda mustaqil bo‘ldi!

Buni ishonch bilan aytishimizga to‘la asos bor, albatta. Birgina vijdon erkinligi orqali fikrimizni dalillasak. Shaxs erkinligi fikr, e‘tiqod erkinligiga bog‘liq. Inson o‘zini

shaxs sifatida to‘la ko‘rsata olishi, orzu va maqsadlariga erishishi uchun bu ikki jihat juda muhim. Bunga ortiqcha izoh berish zarurati yo‘q, nazarimda.

▶ Davomi 3-beta



Ertamiz egalari

YANGICHA FIKRLOVCHI AVLOD mamlakatni harakatlantiruvchi kuch

Bugun intellektual salohiyat mahsuli bo‘lgan g‘oya va innovatsiyalar butun dunyoda qadrlanaypti. Chunki har qanday ilm-fan yangiligi bevosita mamlakat iqtisodiy taraqqiyotiga xizmat qiladi. Yurtimizda ham yangicha fikrlovchi avlod vakillari izlanishlari munosib baholanmoqda.

Yaqinda fan, ta‘lim, qishloq xo‘jaligi, sanoat va boshqa sohalarda yuqori natijalarga erishgan, ixtiro va startap loyihalari bilan mamlakat taraqqiyotiga hissa qo‘shayotgan bir guruh yoshlar “Innovatsion g‘oyalar yetakchisi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi. Ularning aksariyati xalqaro va respublika

miqyosidagi ilmiy-innovatsion tanlovlar, olimpiadalar, festival hamda musobaqalarda yuqori natijalarga erishgan, innovatsion tashabbuslari bilan ajralib turgan iqtidorli yoshlar.

▶ Davomi 5-beta

Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!

MUSTAQILLIK TO‘YI: SIRDARYODA BAYRAM NAFASI



Qoraqalpog‘istonning Qonliko‘l tumanida joylashgan “Oltinko‘l” mahalla fuqarolar yig‘ini ham ana shunday fayzli, odamlari ahil va mehnatkash mahallalardan. Bugun mahallada 4500 ga yaqin kishi istiqomat qilib, asosan dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanadi. Mahallaning ijtimoiy hayotida esa nuroniylarning o‘rni va nufuzi alohida ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, “Bir nuroniy o‘n yoshga mas‘ul” tamoyilining hayotga tatbiq etilishi mahalla tizimida mutlaqo yangi tajribani shakllantirdi.

▶ Davomi 5-beta

NURONIYLAR VA YOSHLAR



Oramizdagi odamlar

Mahalla fayzi — keksalar duosi bilan

Xalqimiz azaldan keksalarni e‘zozlash, ularning hayotiy tajribasi va donishmandligidan bahramand bo‘lishni yuksak qadriyat sifatida e‘tirof etib keladi. Zero, har bir mahallaning fayzu barakasi, tinchligi va ahilligi ko‘p jihatdan nuroniylarning oqilona maslahati, hayot maktabidan o‘tgan tajribasi va jamoatchilik ishlaridagi faol ishtiroki bilan chambarchas bog‘liq.





“**V**atanimizga qaytarilgan yurtdoshlarimiz esa Konstitutsiyamizda kafolatlangani kabi, O‘zbekistonning har bir fuqarosi davlat himoyasida ekanini teran his etdi. Shu bois, “Mehr” operatsiyasi orqali olib kelingan shaxslar bunday bag‘rikenglikka javoban tinch hayot kechirib, halol mehnat qilyapti.

YURT TARAQQIYOTINING MA’NAVIVY TAYANCHI: ERKIN TAFAKKUR, BAG‘RIKENGLIK VA MA’RIFAT UYG‘UNLIGI



Husniddin AHMEDOV,
Din ishlari bo‘yicha
qo‘mita huzuridagi
Diniy-ma‘rifiy sohada malaka
oshirish va qayta tayyorlash
instituti direktori, siyosiy fanlar
doktori, professor

Boshlanishi 1-betda

Ayni o‘rinda yana bir jihat. Ya‘ni bir shaxsning erki boshqalarning daxlsizlik chegarasiga o‘tmasligi zarur. Bu borada insonlarni birdek rozi qilish nihoyatda nozik va murakkab ish. Ayniqsa, mamlakatimizdagi kabi turli millat va elatlar yashaydigan jamiyatda bu yanada dolzarblik kasb etadi. Ikki hissa mas‘uliyat yuklaydi. Yangi O‘zbekistondagi islohotlarning hayotbaxshligi shundaki, shu murakkab missiya nihoyatda samarali bajarilmoqda. Buning uchun bir necha jihadni, keng ko‘lamdagi islohotlarning muayyan qisminigina eslab o‘tish kifoya.

Mustaqil bo‘lganimizdan keyin vijdon erkinligi Konstitutsiyamizda aks etdi. Shunga qaramay, real hayotda bu borada ayrim masalalar xalqimizni qiynab kelayotgan edi. Masalan, shaxs birgina xatosi sabab “qora ro‘yxat”ga tushib qolardi. U jamiyatdan butunlay ajratib tashlanardi. Bunday shaxslar biror joyda ishlay olmasdi ham. Hatto xususiy ish beruvchilar tinchini o‘ylab, osongina rad javobini berardi. Achinarlisi, bu ro‘yxatga gohida aybsiz aybdorlar ham qo‘shilib qolardi. Bunday tushunmovchiliklar jamiyatda g‘amginlik uyg‘otgani, xalqaro maydonda mamlakat nufuziga salbiy ta‘sir ko‘rsatgani bor gap.

Bunga o‘xshash ro‘yxatlarning oqibati haqida esa aksariyatimizda yetarlicha faktlar bor. Shu o‘rinda quloqqa chalingan misollardan birini keltirib o‘tsak. Adabiyot muhbi bo‘lgan akamiz Chorus bozoridagi eski kitoblar rastasidan Ahmad Yassaviyning “Hikmatlar”ini sotib oladi. So‘ng qo‘lida kitob bilan metroga tushmoqchi bo‘ladi. Tabiiyki, yo‘lini to‘sgan xodimlar kitobni ko‘zdan kechiradi. Uddagi arab imlosini ko‘rib, akamizni so‘roqqa tutadi. Yassaviyni ham tanimaydigan yosh xodimning munosabati sabab ikki o‘rtada tushunmovchilik kelib chiqadi. Nihoyat maxsus xonadagi bir yarim soatlik bahsdan so‘ng akamizga ruxsat beriladi.

Mana shu yerda ikkita muhim fakt bor. Birinchisi, yot g‘oyalarga qarshi kurashishda faqat jazolash yo‘li tanlangan edi. Bunday ayblovlar bilan mahkamaga tortilgan shaxslarga nisbatan aybsiz aybdorlik imkonsiz hisoblanardi. Oqibatda qolov darajalar umrini panjara ortida o‘tkazgan holatlar kuzatildi. Adabiyot muhbi bo‘lgan akamiz kabi qanchadan qancha insonlar noo‘rin tushuntirish ishlari tertilib, bebaho vaqti va asabini yo‘qotar edi. Holat shunday ediki, hatto masjidlarda azon tovushi ham o‘chirib qo‘yildi. Buning sababini so‘raganlar shubha ostidagi shaxs sifatida tag‘in o‘sha “subbat”larga jalb etilardi. Shu bois, uquvsizlik avj olib, Ahmad Yassaviydek ulug‘larning kitobini ko‘rsa ham labiga uchuq toshadigan qatlam paydo bo‘lgan edi.

Yurtimizda ma‘rifat keng quloq yozgach, xalqimiz oq-qorani osongina ajrata oladigan bo‘lib bormoqda. Shu o‘rinda keyingi yillardagi ijobiy o‘zgarishlar, shu jumladan o‘tgan 2025-yilda mamlakatimizdagi turli tashkilotlar tomonidan diniy-ma‘rifiy mazmundagi 1100 ga yaqin nomdagi adabiyotlarni chop etishga ijobiy xulosa berilganligi ham fikrimizning tasdiq‘idir. Bu borada ham juda katta yangiliklar kuzatilmoqda. Ayni jarayondagi ochiqlik ta‘minlanib, javob berish muddati tezlashib, ijobiy xulosalar ko‘paydi.



ostida ularni mamlakatimizga qaytarish bo‘yicha “Mehr” insonparvarlik operatsiyalari amalga oshirildi.

“Mehr” operatsiyalari doirasida hozirgacha Suriya, Iroq va Afg‘onistondagi qurolli mojarolar hududlaridan 530 dan ortiq fuqaro vatanga qaytarildi. Ularning qariyb 75 foizini bolalar

tashkil etadi. Bu operatsiyalar esa ko‘plab rivojlangan davlatlar o‘z fuqarolarini qabul qilishdan bosh tortgan bir vaqtda amalga oshirildi. BMT, Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YXHT) va xalqaro ekspertlar O‘zbekistonning bu tajribasini “jahon hamjamiyati uchun namuna va eng insonparvar model” o‘laroq baholamoqda. Juda ko‘p davlatlar adashgan ayollar va bolalarni reabilitatsiya qilishda aynan “O‘zbekiston tajribasi”ni o‘rgana boshladi.

Vatanimizga qaytarilgan yurtdoshlarimiz esa Konstitutsiyamizda kafolatlangani kabi, O‘zbekistonning har bir fuqarosi davlat himoyasida ekanini teran his etdi. Shu bois, “Mehr” operatsiyasi orqali olib kelingan shaxslar bunday bag‘rikenglikka javoban tinch hayot kechirib, halol mehnat qilyapti. Bolalar bilim olib, hunar o‘rganmoqda. Chin yetim bo‘lib qolgan farzandlar Mehribonlik uylariga joylashtirildi. Ularning yangi hayoti, dunyoqarashi yaxshi tomonga o‘zgargan.



Fuqarolarning maxsus hisobdan chiqarilishiyoq jamiyatimizni bir butun xalq, yagona vatan sifatida birlashtirdi. “Mehr” operatsiyalari esa buni yanada mustahkamladi. Bu ishlar xalqaro maydonda ham munosib baholanib, O‘zbekiston dunyo reytinglarida ijobiy ko‘rsatkichlarga erishdi. Nafaqat erishdik, balki ortga qaytmas tus olgan islohotlar sabab dunyo ahliga xalqimizga xos

Assambleyasining navbatdagi yalpi sessiyasida “Ma‘rifat va diniy bag‘rikenglik” deb nomlangan maxsus rezolyutsiya qabul qilindi. O‘zbekiston tomonidan ishlab chiqilgan hujjat loyihasi BMTga a‘zo barcha davlatlar tomonidan bir ovozdan ma‘qullandi.

Mazkur rezolyutsiyaning asosiy maqsadi bilan tanishar ekansiz, uch ming yillik tarixga ega davlatchiligimiz asosi — ilm-ma‘rifatga katta e‘tibor berilganini ko‘rasiz. Ayni paytda yangi O‘zbekistonning ichki va tashqi siyosatida ajdodlar merosidan quvvat olib, zamonaviy rivojlanish yo‘li tanlanganiga ishonchingiz komil bo‘ladi. Ya‘ni rezolyutsiyadagi asosiy maqsad barcha uchun ta‘lim olish imkoniyatini taqdim etish, savodsizlik va bilimsizlikni bartaraf etishdir. Hujjatda bag‘rikenglik va o‘zaro hurmatni o‘rnatish, diniy erkinlikni ta‘minlash, dindorlar huquqlarini himoya qilish va ularning kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslikka muhim ahamiyat qaratilgan.

vakillari bag‘rikenglik tamoyili asosida tinchtotuv yashamoqda. Turli millat va din vakillarining o‘z ibodatlarini emin-erkin ado etishi jamiyat barqarorligining muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Yuqorida ta‘kidlaganimizdek, bunday muhitni shakllantirish, uni nafaqat muntazam rivojlantirish, balki saqlab turishning o‘ziyoq juda murakkab va qiyin vazifa. Mamlakatimizda esa bu borada mustahkam huquqiy asos yaratilib, ko‘rsatkichlar yil sayin ijobiy tomonga o‘zgarib, o‘sib bormoqda.

Xususan, 2025-yilda diniy-ma‘rifiy sohaga oid 14 ta normativ-huquqiy hujjat qabul qilingan. Ushbu hujjatlarni ishlab chiqishda asosiy e‘tibor fuqarolarning vijdon erkinligi huquqini ta‘minlashga qaratilgani bilan ahamiyatli.

Diniy ma‘rifatga ilmsiz erishib bo‘lmaydi. Shu ma‘noda diniy ta‘lim sohasi ham tubdan isloh qilingani eng katta yutuqlarimizdan biri bo‘ldi. O‘tgan qisqa vaqt ichida O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom

Moturidiy, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari, O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi, Samarqandda Hadis ilmi maktabi, Buxoroda Mir Arab oili madrasasi tashkil etildi. Bundan tashqari, barcha uchun ochiq bo‘lgan Qur‘on kurslari tashkil etildi.

2017-yilga qadar mamlakatimizda 3 ta oliy (1 ta islomiy, 2 ta noislomiy) hamda 9 ta o‘rta maxsus diniy ta‘lim muassasasi faoliyat yuritgan, xolos. Bugun esa 16 ta diniy ta‘lim muassasasi bor. Ularning 6 tasi oliy o‘quv yurti hisoblanadi. Ularda yoshlarimiz ulug‘ ajdodlarga munosib voris bo‘lish yo‘lida ilm-ma‘rifat olmoqda. Masalan, Markaziy Osiyoda yagona Hadis ilmi maktabiga asos solingan xalqimiz faxrida aylandi.

Diniy ta‘limda qabul kvotalari kengaytirildi, xotin-qizlar uchun diniy ta‘lim olish imkoniyatlari yaxшилandi. Muhimi, barcha diniy ta‘lim muassasalarining o‘quv-uslubiy, ma‘naviy-ma‘rifiy, ilmiy yo‘nalishlari tubdan qayta ko‘rib chiqildi. O‘quv dasturlari takomillashtirilib, yangi fanlar kiritildi. Mutaxassislik fanlari bo‘yicha yangi avlod darsliklari tayyorlandi. Bularning barchasi Bosh qonunimizda ko‘rsatilgani kabi vijdon erkinligi kafolatlariga xizmat qilmoqda. Zero, ilm-ma‘rifat bo‘lgan joyda ziddiyat, tushunmovchiliklar chekinadi. Jamiyatda birdamlik, o‘zaro hurmat shakllana boradi. Bir butun xalq, yagona vatan bo‘lib yashash sururi qablarni to‘ldiradi!

Ma‘rifat targ‘ibotining eng samarali usuli ezigulik ulashishda namuna bo‘lishdir. Bir paytda muqaddas haj amalini bajarish ham ancha mushkul edi. Hatto umra safari uchun muayyan cheklavlarni o‘rnatilgandi. Mamlakatimiz uchun haj kvotalari keskin ko‘paytirildi. Masalan, 2016-yilda 5 mingdan ko‘proq yurtdoshimiz ushbu muqaddas amalni bajarish imkoniga ega

bo‘lardir. O‘tgan yillar davomida ko‘rsatkich oshirib borildi va haj kvotasi 15 mingga yetkazildi.

Umra safari uchun kvotalar butunlay bekor qilinib, sohaga xususiy sektor kirib keldi. Muhimi, hojilarimiz endi dinimizning bitta ahkomini bajargan shaxslargina emas, balki jamiyatning faol a‘zosi sifatida vatanga qaytmoqda. Ya‘ni o‘zbekistonlik hojilar ushbu e‘zoz va hurmarga javoban yurtga qaytgach “ma‘naviyat targ‘ibotchisi” sifatida yangi va xayrli tashabbuslarda boshqalarga namuna bo‘lmoqda. Bu ham O‘zbekistonda ilm-ma‘rifat targ‘ibotida o‘ziga xos yo‘l tanlanganini ko‘rsatmoqda.

Gap haj amali haqida ketar ekan, Prezidentimizning shu yil 20-maydagi “Muborak Qurbon hayitini nishonlash to‘g‘risida”gi qarorini eslashimiz zarur. Ushbu hujjat “Inson qadri uchun, inson baxti uchun” degan ezu g‘oyani chuqur qaror toptirishga, insonparvarlik, saxovat, shukronalik va bag‘rikenglik kabi olijanob fazilatlarini yanada boyitishda muhim huquqiy asos bo‘ldi.

Shu yil Ramazon oyida ehtiyojmand hamyurtlarimizning hayotini yanada yaxshilash, minglab ko‘ngillariga quvonch olib kirish maqsadida bir trillion so‘mdan ziyod mablag‘ ajratildi. Bu mablag‘ imkoniyati cheklangan yuzlab, minglab bemorlarning jarrohlik amaliyotlariga, uy-joylarini tiklashiga, dillarini shod etishga sarflandi.

Bunday xayrli ishlarning uzviy davomi sifatida muborak Qurbon hayiti ayyomi arafasida davlatimiz rahbari ehtiyojmand aholini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yanada qo‘llab-quvvatlash yuzasidan yangi taqdimot bilan tanishib, 690 milliard so‘m ajratilishini ma‘qulladi.

Xalqimizga ko‘rsatilayotgan bunday tizimli g‘amxo‘rliklar doirasida nihoyatda ulkan muruvvat tadbirlari o‘tkazildi. Xususan, bu mablag‘lar hisobidan og‘ir xastaliklarga chalingan 10 ming bolada murakkab jarrohlik amaliyotlari o‘tkazish belgilandi. Shuningdek, onkologik, gematologik va onkogematologik tashxis qo‘yilgan 2 mingdan ziyod bemorni tibbiy tekshiruvdan o‘tkazish, davolash va jarrohlik amaliyotini o‘tkazish hamda 300 dan ortiq bemorda jigar va buyrak transplantatsiyasi amaliyotini o‘tkazish xarajatlari to‘liq qoplab berish ko‘rsatildi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj, yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum, shuningdek, Vatan sarhadlarini himoya qilish yo‘lida qurbon bo‘lgan qahramonlarimizning 8 mingdan ziyod farzandi alohida e‘tiborga olinib, ularning omonat hisobvaraqlariga 200 dollar miqdorida pul o‘tkazib berildi. Ushbu ezu ishlarning davomi sifatida hududlardagi 500 ta masjidda zamonaviy tahoratxonalar qurilishi, ta‘mirlanishi belgilandi, qabristonlar obod qilindi.

Vatan va xalq manfaati yo‘lida sidqidildan xizmat qilgan mehnat faxriylari, ularning oila a‘zolari, mahalla faollari, nuroniyar hamda kam ta‘minlangan oilalar vakillaridan iborat 100 nafar yurtdoshimiz ilk bor “Prezident hojisi” sifatida davlat tomonidan haj safariga yuborildi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda diniy bag‘rikenglik borasida tub islohotlar kechdi. Maqolamiz avvalida ularning har biri haqida hech bo‘lmasa bitta fikr bilan to‘xtalib o‘tishni niyat qilgan edik. Ammo bu boradagi islohotlar ko‘lami keng bo‘lgani bois, bir-ikkita yangilanishni qisman sharhlab berdik xolos. Mana shuning o‘ziyoq o‘tgan qisqa davrda hayotimizda qanchalik katta ijobiy o‘zgarishlar kuzatilganini isbotlaydi.

Yangi O‘zbekistondagi islohotlar boshlanganida vijdon erkinligi borasida muayyan savollar qarashida edik. Ularning har biri xalqimiz qalbida goh orzu, ba‘zan armon shaklida yashab kelayotgandi. Diniy bag‘rikenglik va vijdon erkinligi sohasidagi islohotlar faqat qonunlar yoki xalqaro anjumanlar bilan cheklanib qolmadi. Ular bevosita oddiy insonlarning kundalik hayotidagi to‘siqlarni olib tashlashga va uzoq yillar davomida to‘planib qolgan nozik muammolarni hal qilishga qaratildi.

Natijada qisqa muddatdagi islohotlar sabab mamlakatimiz xalqaro tashkilotlar va rivojlangan davlatlarning kuzatuv, maxsus ro‘yxatlarida ijobiy ko‘rsatkichlarga erishdi. Hatto ularga namuna bo‘ladigan zamonaviy yechimlarni taqdim etadigan mamlakatga aylandi. Muhimi, xalqimizning orzulari ushlab, armonlarga barham berildi. Bunday quvonchli, farahbaxsh tuyg‘uni vijdon erkinligini to‘la his etib, o‘z e‘tiqodiy qarashlari bilan bemalol yashayotgan ko‘p millatli xalqimizning yuz-ko‘zidan bilib olish mushkul emas.

SIFATLI NA'MATAK MAHSULOTI YETISHTIRILADI

Muxlisa TUROPOVA,
Termiz davlat muhandislik va
agroteknologiyalar universiteti tayanch
doktoranti:

— Surxondaryo viloyatining tabiiy-iqlim sharoiti dorivor o'simliklarni yetishtirish uchun juda qulay. Viloyatning tog'li va tog'oldi hududlarida tabiiy holda uchraydigan na'matak ana shunday qimmatli o'simliklardan biridir. Uning mevasi tarkibida vitaminlar, organik kislotalar, mineral moddalar va tabiiy antioksidantlar ko'p bo'lib, farmatsevtika, oziq-ovqat sanoati hamda xalq tabobatida keng foydalaniladi.

Bugungi kunda na'matak plantatsiyalarini kengaytirish, undan olinadigan mahsulot miqdori va sifatini oshirish muhim vazifalardan biri. Biroq o'simlikning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi turli kasallik va zararkundalar mavjud. Ular orasida tuproq va o'simlik ildizlarida yashovchi parazit nematodalar alohida xavf tug'diradi.

Parazit nematodalar ko'z bilan ko'rib bo'lmaydigan, juda mayda yumaloq chuvalchanglar bo'lib, asosan, o'simlikning ildiz tizimini zararlaydi. Ular ildiz to'qimalari bilan oziqlanib, o'simlikning suv va mineral moddalarni o'zlashtirish jarayonini buzadi. Natijada na'matakning o'sishi sekinlashadi, barglari sarg'ayadi, novdalar zaiflashib, hosildorligi kamayadi. Zararlangan o'simlik qurg'oqchilik, yuqori harorat va boshqa noqulay sharoitlarga chidamsiz bo'lib qoladi. Loyihamiz ana shu muammo yechimiga qaratilgan.

Tadqiqotlar davomida Boysun, Sariosiyo, Uzun, Oltinsoy va boshqa tog'li hamda tog'oldi hududlardagi na'matakzorlar o'rganilishi ko'zda tutilmoqda. Mazkur hududlardan tuproq, o'simlik ildizi va boshqa biologik namunalar olinib, laboratoriya sharoitida tekshiriladi. Natijada na'matak ildizi atrofida yashovchi nematodalarining tur tarkibi, soni va tarqalish darajasi aniqlanadi.

Har bir hudud bo'yicha tuproq turi, namlik, harorat, o'simlikning yoshi, rivojlanish holati va zararlansh belgilari qayd etiladi. Olingan ma'lumotlar asosida parazit nematodalar ko'p uchraydigan xavfli hududlar belgilanib, ularning elektron xaritasini yaratish ko'zda tutilgan.

Loyihaning eng muhim jihati shundaki, parazit nematodalarga qarshi kurashishda kuchli kimyoviy vositalardan imkon qadar kam foydalaniladi. Na'matak — dorivor o'simlik. Yetishtirishda mahsulotning ekologik tozaligi alohida



ahamiyatga ega. Shu bois, loyiha doirasida foydali bakteriyalar, zamburug'lar va boshqa biologik vositalarni ishlatish rejalashtirilgan. Bunday mikroorganizmlar parazit nematodalarining tuxumlarini va lichinkalarini rivojlanishini cheklashi, sonini kamaytirishi hamda o'simlikning tabiiy himoya xususiyatlarini kuchaytirishi mumkin.

Tadqiqot jarayonida biologik vositalarning na'matak ko'chatlariga ta'siri laboratoriya, issiqxona va dala sharoitida sinovdan o'tkazilishi rejalashtirilgan. Tajribalarda o'simlik ildizining rivojlanishi, novdalar o'sishi, barglarning holati, meva hosildorligi hamda nematodalar sonining o'zgarishi muntazam kuzatib boriladi.

Bioinnovatsion agroteknologiya faqat biologik preparatlardan foydalanishni emas, balki barcha foydali agroteknik tadbirlarni yagona tizimga birlashtirishni nazarda tutadi. Bunda sog'lom ko'chatlardan foydalanish, tuproq unumdorligini oshirish, organik o'g'it va biogumus qo'llash, sug'orish tartibini to'g'ri tashkil etish, zararlangan o'simlik qoldiqlarini maydondan chiqarish va almashlab ekish kabi tadbirlar ham muhim o'rin egallaydi.

Mazkur loyiha hududda dorivor o'simliklar yetishtirishni rivojlantirish, yangi na'matak plantatsiyalarini tashkil etish va mahalliy xomashyo bazasini kengaytirishga ham xizmat qilishi bilan ahamiyatli. Sifati na'matak mahsulotini yetishtirish esa farmatsevtika va oziq-ovqat sanoati korxonalarini tabiiy xomashyo bilan ta'minlash imkoniyatini oshiradi.

“Yangi O'zbekiston” muxbiri
Risolat MADIYEVA tayyorladi.



YANGICHA FIKRLOVCHI AVLOD mamlakatni harakatlantiruvchi kuch

Boshlanishi 1-betda

SUVDAN OQILONA FOYDALANISH IMKONIYATI OSHADI

Fotimabonu HAYDAROVA,
Buxoro davlat texnika universiteti tayanch
doktoranti:

— O'zbekistonda suv resurslari cheklangani qishloq xo'jaligida jiddiy muammo. An'anaviy sug'orish ko'p suv talab qiladi va sho'rlanish xavfini kuchaytiradi. Biz ishlayotgan “Yarim cho'l hududlarda suv tejovchi Groasis Waterboxx texnologiyasi asosida psammofitlarni yetishtirish uslubiyatini tajriba asosida baholash” loyihasi esa ayni shunga yo'naltirilgani bilan ahamiyatli. Loyihamiz Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tashkil etilgan “Akademik harakatchanlik” dasturida g'olib bo'ldi. “Innovatsion g'oyalar yetakchisi” ko'krak nishoni bilan taqdirlanganim esa mamlakatimizda izlangan, intilgan yosh harakati e'tibordan chetda qolmasligiga yana bir misol bo'ldi.

Loyiha doirasida dala sharoitida tajribalar o'tkaziladi, tahilllar qilinadi va ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilishi kutilyapti. U cho'llanish jarayonini sekinlashtirish va yerlarni qayta tiklash imkonini beradi. Qumli va degradatsiyaga uchragan maydonlarda saksovul, qandim, cherkez, yulg'un kabi psammofit o'simliklarni muvaffaqiyatli yetishtirishda qo'l keladi. Bu esa shamol erizmasi hamda qum ko'chishining oldini olishga xizmat qiladi.

Texnologiya Orolbo'yi hududlarini ko'kalamzorlashtirishda muhim vosita bo'lishi mumkin. Shuningdek, u iqlim o'zgarishiga moslashish imkonini ham oshiradi. Qishloq



xo'jaligi sohasida esa mazkur texnologiya bog'lar, himoya o'rmonzorlari va agro'o'rmonchilik tizimlarini barpo etishda katta ahamiyatga ega. Bu yerlardan samarali foydalanish, hosildorlikni oshirish va suv xarajatlarini kamaytirish imkonini yaratadi.

Iqtisodiy jihatdan qaralganda, texnologiya ko'chatlarning qurib qolishini kamaytiradi, sug'orish xarajatlarini qisqartiradi va “yashil iqtisodiyot” hamda ekologik loyihalar uchun investitsiya jalb qilish imkoniyatini kengaytiradi. Uni dronlar, geoxabrot tizimlari (GIS) va masofadan zondlash texnologiyalari bilan birga qo'llash orqali ko'chatning o'sishi va yerning ekologik holatini samarali monitoring qilish mumkin.

“O'ZFONEMAYZER” QANDAY DASTUR?

Gulshahnaz MAHMUDJONOVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti tayanch doktoranti:

— Bugungi kunda ingliz tilidagi Oxford va Longman kabi xalqaro lug'atlarda har bir so'zning fonetik transkripsiyasi hamda talaffuzini eshita bo'ladi. Bu til o'rganuvchilarga so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish uchun muhim. Ammo o'zbek tilidagi elektron lug'atlarda ko'pincha faqat so'z va uning ma'nosi beriladi, so'zning qanday talaffuz qilinishi, fonetik transkripsiyasi yoki audio namunasi esa mavjud emas. Shu sababli o'zbek tilini o'rganuvchilar, ayniqsa, xorijliklar so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishda qiyinchilikka duch keladi. “O'zfonemayzer” loyihasining muhim afzalliklaridan biri ham aynan o'zbek tili elektron lug'atlarini fonetik transkripsiya bilan boyitish va uni amaliyotga tatbiq etishdan iborat.

Bundan tashqari, ovozi yordamchi ishlab chiqaymiz. Hozirgi kunda o'zbek tilidagi ovozi yordamchilar va sun'iy intellekt asosidagi muloqot tizimlari turli sohalarda qo'llanilmoqda. Masalan, “Muxlisa” sun'iy intellekti davlat xizmatlari portallarida, call-center tizimlarida, ovozni matnga va matnini ovozga aylantirish jarayonlarida, shuningdek, foydalanuvchilar savollariga o'zbek tilida javob berish kabi vazifalarda ishlatilmoqda. Bunday texnologiyalardan foydalanilayotganda robot so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishi, tabiiy intonatsiya va ravon nutq juda muhim hisoblanadi. Shu sababli robot yordamchilar nutqini inson nutqiga yaqinlashtirish o'zbek tili fonetikasini aniq



qoidalar asosida standartlashtirishni talab etadi. Loyihamiz ana shunga yo'naltirilgan.

Loyihaning birinchi bosqichida o'zbek tilidagi so'zlarni avtomatik fonetik transkripsiyaga aylantiruvchi tizimni ishlab chiqdik va uni <https://orfo.uz> platformasiga joylashtirdik. Keyingi bosqichda to'g'ri talaffuz bo'yicha ovozi yozuvni kiritmoqchimiz. Bu ovozi yordamchi nutqini robot emas, tabiiy, inson nutqidек chiqarib berishga yordam beradi. Misol uchun, hozir “Muxlisa” va “Aisha” sun'iy intellektlari bor. Ularning talaffuzi tabiiy chiqmaydi. Chunki ular robot. Biz robotga tabiiy talaffuzni o'rgatamiz. Bu bilan texnologiyalar davrida o'zbek tilining sofliгинi bir oz bo'lsa-da saqlab qolamiz.



Oramizdagi odamlar

Boshlanishi 1-betda

Mazkur tashabbus orqali keksalarning hayotiy tajribasi va ma'naviy merosi yosh avlod tarbiyasida o'ziga xos ibrat bo'layotir. Jumladan, yoshlarni turli salbiy ta'sirlardan asrash, ularda mehnatsevarlik, vatanparvarlik va oilaviy qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Oltinko'l mahallasida ushbu ezuq maqsadlarni amalga oshirishda fidoyilik ko'rsatayotgan nuroniyilar orasida Karamatdin Uzaqbergenovning o'rni alohida. Mahalla ahli mazkur insonni mehnatsevarligi, faolligi va tashabbuskorligi bilan yaxshi tanıydi. U nafaqat ko'cha oqsoqoli, balki mahallaning ma'naviy ustuni sifatida ham katta hurmatga ega.

Karamatdin uzoq yillik hayotiy tajribasini yoshlar tarbiyasiga bag'ishlab keladi. U mahalladagi har bir xonadon bilan muntazam muloqot qilib, aholining turmush tarzi, muammolari va ehtiyojlari bilan qiziqadi. Nuroniy sifatida oilalardagi ahillikni mustahkamlash, erta nikohlarning oldini olish, qarindoshlik munosabatlarini asrab-avaylash va yoshlarga to'g'ri yo'l ko'rsatishda jamoatchilik asosida faol ishtirok etib kelmoqda.

— “Bir nuroniy o'n yoshga mas'ul” tamoyili asosida o'zimizga birlashtirilgan yoshlar xonadonlariga borib, tomorqadan samarali foydalanish, agroteknik tadbirlarni o'z vaqtida bajarish va hosildorlikni oshirish bo'yicha amaliy maslahatlar berib kelamiz. Bu esa yoshlar bandligini ta'minlash, oilaviy daromadni ko'paytirish va tadbirkorlikka qiziqishni oshirishda juda muhim, — deydi Karamatdin ota Uzaqbergenov. — Shu bilan birga, bugungi axborot oqimi kuchaygan davrda huquqni muhofaza qiluvchi organlar va tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish, internetdan oqilona foydalanish madaniyatini shakllantirish borasida tushuntirish ishlarini ham muntazam o'tkazaymiz.

Darhaqiqat, mahalla tizimi faqat ma'muriy tuzilma emas, balki inson taqdiri, tarbiya, ma'naviyat va hamijhatlik maskanidir. Uning mustahkamligi esa ko'p jihatdan nuroniyning fidokorona mehnati va jamoatchilik ishlaridagi ishtirokiga bog'liq. Hayotiy tajribaga ega keksalar yoshlar uchun ibrat maktabi vazifasini o'taydi. Ular aytgan har bir nasihat, berilgan har bir maslahat yosh avlod kamolotiga xizmat qiladi.

Mehnatdan baxt topgan onaxon

Yerdan rizq undirib, el farovonligi yo'lida xizmat qilayotgan insonlar — jamiyatimiz tayanchi. Qishloq xo'jaligida o'z kasbiga chinakam ixlos qo'yg'analardan biri “Beshko'pir yaylov” ishlab chiqarish kooperativi rahbari



NURONIYLAR VA YOSHLAR

Guliston Aralbayeva. U 2020-yildan buyon bilimi va tajribasiga tayanib qishloq xo'jaligini rivojlantirish, aholini arzon va sifati oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash yo'lida xizmat qilib kelmoqda.



Guliston opa faqat ishlab chiqarish bilan cheklanib qolmay, xalqaro loyihalarda ham faol ishtirok etib kelmoqda. Uning tashabbusi bilan 2014-yili elektr ta'minoti past bo'lgan No'g'ay va Mo'yten aholi punktlariga transformatorlar o'rnatilib, qator hududlarga ichimlik suv tarmoqlarining tortilishi hudud aholisini juda mamnun etdi. Shuningdek, u innovatsion texnologiyalarni joriy etish, issiqxonalar qurish, asalarichilikni rivojlantirish, kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlashda ham tumanda yetakchi.

Xonadon tomorqasiga mevali daraxt va poliz ekinlari ekilgan. Erta bahordan boshlab yerga mehr bilan ishlov berish, issiqxonadan samarali foydalanish hisobiga yil davomida hosil olishga erishadi. Ayniqsa, issiqxonasida yetishtirilgan

mahsulotlar bozorga erta chiqarilib, aholini sifati va tabiiy mahsulotlar bilan ta'minlayotir. Shuningdek, xonadonda asalarichilik ham yo'lga qo'yilgan.

Opa aslida uzoq yillar ta'lim sohasida ishlab, yosh avlod tarbiyasiga munosib hissa qo'shgan. Qayerda faoliyat yuritmasin, jamoada hamijhatlik, hurmat va ishonch muhitini shakllantirib keladi. Uning fidokorona mehnati munosib baholalanib, davlatimiz rahbari tomonidan 2022-yil “Shuhrat” medali bilan taqdirlangan. Shuningdek, “Ibratli tomorqachi” va “Ibratli ayol” ko'krak nishoniga munosib ko'rilgan.

Bugun Guliston Aralbayevaning hayot yo'li, ezuq ishlari va erishgan yutuqlari kelajak avlodni yaxshilik va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qilyapti. U farzandlarini el-yurtga sadoqatli insonlar etib tarbiyalamoqda.

Oltinko'l yoshlari yutuqlari

Qonliko'l tumanidagi “Oltinko'l” mahalla fuqarolar yig'inida 1014 o'g'il-qiz ro'yxatga olingan. O'tgan davrda “Yoshlar daftari” orqali 300 dan ortiq yoshga ijtimoiy, moddiy va ma'naviy jihatdan har tomonlama ko'mak berildi. Shunday yoshlaridan biri Navbahor Xo'jamberganova “Kelajak kasblari” loyihasi orqali xorijiy tillarni o'rganish imkoniyatiga ega bo'ldi. Turk tili bo'yicha maxsus sertifikatni qo'lga kiritib, bugun magistratura bosqichida ta'limni muvaffaqiyatli davom ettirmoqda. Navbahor singari o'z bilimi va intilishi bilan namuna bo'lib kelayotgan yoshlar mahallada ko'p.

Prezidentimizning 2024-yil 5-apreldagi “Qishloq xo'jaligida yoshlar bandligini

ta'minlash, ularga yer maydonlarini ajratish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori asosida 120 yoshga dehqonchilik bilan shug'ullanishi uchun yer maydoni ajratilgan. Undan unumli foydalanib, yuqori hosil olgan 2 yosh “Mehnatkash dehqon” ko'krak nishoni bilan taqdirlangan.

Yoshlarni zamonaviy kasblarga o'rgatish bilan birga xorijda mutaxassis sifatida faoliyat yuritishini tashkil etishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. 2025-yildan boshlab Oltinko'l mahallasi yoshlarini Germaniyaga tartibli migratsiya asosida ishga yuborish yo'lga qo'yildi. Bu boradagi ishlab chiqarish sifatida joriy yilning birinchi yarim yilligida 15 yigit-qiz zarur hujjatlarni muvaffaqiyatli topshirib, o'z ustida ishlamoqda.

— Yoshlar yetakchisi sifatida bilimim va tajribamni oshirish uchun ko'plab tanlovlarda



ishtirok etib kelaman. O'tgan yil yakunlari bo'yicha mamlakat miqyosidagi eng faol

100 nafar yoshlar yetakchisi ro'yxatiga kiritildi. Respublika bo'yicha o'tkazilgan “Eng namunali yoshlar yetakchisi” tanlovida 2-o'rinni egalladim, — deydi “Oltinko'l” mahalla fuqarolar yig'inidagi yoshlar yetakchisi Salamat Aytbayev.

Dehqonchilikdagi tajriba — mo'l daromad manbai

Beruniy tumanida yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsada tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish hamda qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer maydonlari 30-yilga ijara shartnomasi asosida ajratilmoqda. Mazkur tashabbus yoshlarning dehqonchilik faoliyatini yo'lga qo'yishi, daromad manbalarini yaratishi uchun katta imkoniyatdir.

Ajratilgan maydonlarda yoshlar sabzavot, poliz, dukkakli ekinlar yetishtirib keladi. Bunda ularga agroteknologiyalarni amaliyotga tatbiq etish, suv resurslaridan samarali foydalanish va hosildorlikni oshirish bo'yicha ko'maklashadi.

Ibn Sino mahallasida 8 yigit-qizga 10 sotixdan yer ajratilgan. Yoshlar hozir qovoq, poliz ekinlarini parvarishlab keladi. Mayda qadalgan urug'dan sentyabrda hosil yig'ib olish mumkin. Qovoq ichki va tashqi bozorda ham yuqori daromadli mahsulot. Kam suv talab qilishi esa iqlim sharoitiga juda mos. Mazkur mahallaning drayveri bo'lgan dehqonchilik bo'yicha yoshlarning ko'nikmasi va tajribasi yetarli.

“Tinchlik” ovul fuqarolar yig'inida ham yigirmaga yaqin yoshga 30 sotixdan1 gektargacha yer ajratib berilgan. Bu yerda

mavsum davomida 2 marotaba hosil olinadi. Ertapishar tarvuz may oyida plyonka ostiga ekilib, hozir ichki bozorni ta'minlab kelyapti. Shuningdek, yoshlarning qishloq xo'jaligi sohasidagi tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ularni imtiyozli kredit va subsidiya bilan ta'minlash, mahsulotlarini bozorga chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish borasida ham tegishli chora-tadbirlar ko'rilmog'da. Ushbu sa'y-harakatlar tufayli tuman yoshlarining bandligi ta'minlanib, tadbirkorlik ko'nikmasi mustahkamlanmoqda hamda hududning iqtisodiy rivojiga munosib hissa qo'shilyapti. Yoshlar uchun yaratilayotgan bunday imkoniyatlar kelajakda qishloq xo'jaligi sohasining yanada rivojlanishi va aholi farovonligining oshishiga xizmat qiladi.

Minajatdin QUTLIMURATOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

Sayyora TOʻYCHIYEVA,
“Maʼrifat” targʻibotchilar jamiyati aʼzosi, professor

Oʻzbekning ajoyib odati bor, toʻy boshlash hamma baholi qudrat toʻyonasi bilan keladi. Mamlakatimiz mustaqilligining 35 yillik muborak toʻyini katta bunyodkorlik ishlari, erishilgan qator muvaffaqiyatlari bilan qarshi olayotgan Sirdaryo ahli “Mustaqillik toʻyi” tantanalarini koʻtarinki kayfiyat bilan boshladi.

“Yagona Vatan, yagona xalq boʻlib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” shiori ostida oʻtayotgan umumxalq bayrami munosabati bilan xalqimiz suygan adiblar, sanʼatkorlar, milliy kino ustalari, iqtidorli yoshlar qatorida “Maʼrifat targʻibotchilari” safida Sirdaryoga yoʻl oldik.

Muqaddas manbalarda “Soʻzda sehm, shʼerda hikmat bor” degan tabarruk kalomni uchratamiz. Soʻzning sehmri insoniyatni oʻz oʻqi atrofida adashmay aylanib turishiga xizmat qiladi. Zotan soʻzdgai ilohiy sirni, sehmni anglagan, his qilgan inson hayotning asl maʼnosini, mavjudotning bor haqiqatini tushunib yetadi. Soʻzlardagi ana oʻsha tilsimli haqiqatni anglash va anglatishdek qutlugʻ vazifa shoiru shuaroqa, fozilu fuzaloga, olimu ulamoga bekorga tortiq qilinmagan.

Oʻzbekiston xalq shoiri Toʻra Sulaymonning “Hamqishloqlarim”, “Qorasoch” asarlaridagi xalq ogʻzaki ijodining ajabtovor topilmalari, Oʻzbekiston xalq shoiri, benazir Halima Xudoyberdiyevaning “Oʻzimning bogʻlar”, “Ona, seni sharaflayman”, “Chaman” kitoblaridagi

MUSTAQILLIK TOʻYI: SIRDARYODA BAYRAM NAFASI

quyma satrlar shu qutlugʻ vazifaning bebaho tilsimi, adabiyotimizning bebaho durdonalari sanaladi.

Maʼnaviy-maʼrifiy uchrashuvlar, adabiy kechalar, gala-konsertlar, “Mustaqillik marshi”, “Shukronalik uchrashuvlari”, “Mustaqillik kinokarvoni”, “Yaxshilik karvoni”, “Yangi Oʻzbekistonning baxtiyor bolalari”, “Shijoat”, “Maʼrifat tur” kabi loyihalarni oʻz ichiga olgan festivalning birinchi lokatsiyasi — Yangiyerdagi Abdurahmon Jomiy mahallasida zamonaviy “Yoshlar bogʻi”ning ochilishi boʻldi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan boshlangan “Yashil makon” umummilliy loyihasiga asosan koʻp qavatli binolar orasida zamonaviy yoʻlaklar, bolalar oʻyingohlari, milliy hunarmandchilik asosida qurilgan sakkizburchak ayvonchalar shaklidagi dam olish joylari shahar yoshlarining sevimli maskaniga aylanishi tabiiy. Yangiyer shahar “Nuroni” jamgʻarmasi raisi Yusuf ota Samadov moʻjazzgina bu bogʻning yoshlar, mahalla ziyolilari bilan birgalikda yaratilgani haqida faxrlanib soʻzlaydi:

— Har bir bayramni yangi tashabbuslar bilan kutib olgimiz keladi, yarim gektarga yaqin yerga koʻplashib daraxt, gul koʻchatlari oʻtqazdik, suv keltirdik, ajab bahavo joy boʻldi. Endi ishdan chiqib, bola-chaqa bilan dam olishimizga imkon bor, yoshlarimiz kechki payt konsertlar uyushtiradi, bogʻcha bolalari yayraydi. “Izlagan imkon topadi” degani shu-da.

Davlatobod mahallasidagi “Kelajak markazi”da maktab oʻquvchilarining yozgi oromgohlari joylashgan. Sport musobaqalari qizgʻin ketayotgan bir vaqtda yosh rassom, kitobxon, hunarmandlar toʻgaragining aʼzolariga kitoblar ulasharkanmiz, ilmu maʼrifat mavzusida savol-javoblar oʻtkazdik, munozaralar kuy-qoʻshiqlarga ulanib ketdi.

Guliston davlat pedagogika instituti talabalari ishtirokidagi “Zakovat” intellektual oʻyini chinakam yoshlar bayramini eslatadi. Oʻzbekistonning eng yangi tarixi, jadidlar



maʼrifati, yangi islohotlar koʻlamini his etgan yoshlarning savollarga aniq va puxta javoblari, professor-oʻqituvchilarning Mirzachoʻlni oʻzlashtirish, yangi Sirdaryo jamolini koʻz-koʻz qilayotgan yangi, zamonaviy inshootlar, bilim maskanlari, aholi uchun turar joy binolari qad koʻtarayotgani haqidagi maroqli suhbatlaridan koʻngillar yorishadi.

Yozuvchilar uyushmasi aʼzosi, isteʼfodagi polkovnik Tursunbek Rahmonov Yangiyer shahridagi Yuksalish mahallasida yashaydi. Yozuvchining uyida besh mingga yaqin kitob fondiga ega boʻlgan kutubxonadan Mahmud Koshgʻariyning “Devonu lugʻotit-turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadgʻu biligʻ”, Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq”, Ahmad Yassaviy va Sulaymon Boqirgʻoniyning “Hikmatlar”i, Nosiriddin Rabgʻuziyning “Qissai Rabgʻuziy” kabi mumtoz asarlari, Alisher Navoiyning “Saylanma gʻazallari”ni topishimiz mumkin.

Quvonarlisi, shaharning 7-umumtaʼlim maktabi va davlat maktabgacha taʼlim tashkiloti tarbiyalanuvchilari uchun bu uy-kutubxonada alohida kartotekalar ochilgan, kitoblardan foydalanish uchun qulay imkoniyat yaratilgan.

markazi fondini boyitish maqsadida 250 nomdagi 668 nusxa badiiy-adabiyot kutubxonaga tantanali ravishda topshirildi.

Tumandagi Fayziobod mahallasida istiqomat qiluvchi shoira Nasiba opa Abdurahmonovanning “Ilitjo”, “Sogʻinch iztirobi” kitoblarini, shʼerlarini adabiyot muhoblari yaxshi biladi. Opaning xonadonidagi bir piyola choy ustidagi dalkash suhbatda kitoblar, osoyishta hayot, bugungi kun ayollarining oilani qanday asrab-avaylashi, kelinlari ovsinlar hurmatini koʻrib, koʻnglimiz yayradi.

Oltin tumani 1-umumtaʼlim maktabidagi gala-konsert ishtirokchilar uchun haqiqiy bayramga aylanib ketdi. Mahalla oqsqoqallari, faollari, tuman aholisi bilan boʻlib oʻtgan koʻngilochar uchrashuvlarda tinchlik va barqarorlikni ulugʻlovchi madaniy-maʼrifiy tadbirlar, davra suhbatlari tashkil etildi. Bu yerdagi fidoyi insonlarning ibratli ishlariga qoyil qolmasdan iloj yoʻq.

Andijon mahallasidagi “Oqila ayollar” yetakchisi Tozagul Oltiboyeva oilalar farovonligi, onalik va bolalikni muhofaza qilish, ehtiyojmand oilalarni qoʻllab-quvvatlash borasida mahalla raisi Xolbekjon Dehqonovga koʻmakdosh.

Ular mahalladagi mingdan ortiq xonadon, bir yarim mingga yaqin oilaga xizmatda ekanini aytishganda, ulugʻlarimizning “Bir dasta tayoqni birga bogʻlangiz, kimsa sindirilmas. Agarda ajratsangiz, bir-birini sindirar” degan dono oʻgiti hayotiy haqiqat ekaniga guvoh boʻldik.

Usta dehqon, tadbirkor Mamirjon Hafizov olti sotix tomonidan bir yilda uch marta hosil oladi, takroriy ekinlar ekadi, mevali bogʻidan har yili 250 million soʻmʼdan ortiq daromad oladi, toʻrt oʻgʻlini yoniga olib dehqonchilik qiladi, hamsoyalar, mahallaning ehtiyojmand oilalariga hayitliklar, bayramliklar ulashadi.

Boyovut tumani “Yurt bayrogʻi” maydonidagi “Mustaqillik toʻyi” festivalida poxtaxlik sanʼatkorlarga qoʻshilib tuman iqtidorli yoshlari ham qoʻshilgar kuyladi, shʼerlar aytadi. Kinoaktyorlar Shavkat Komilov, Odina Abdurahmonovanning oʻzbek milliy kinosi faoliyati

borasidagi suhbatlari “Farz” filmi namoyishiga ulanib ketdi.

Bolajonlik, mehru oqibat xalqimizga xos xislat. Bahodir aka Boltayev va Joʻraxon opa Karimovlar Guliston shahar Bahor mahallasida istiqomat qiladi. Oʻzlarining toʻrt farzand qoʻshib “Mehribonlik uyi”dan yana sakkiz bolani tarbiyasiga olgan. Behruz, Karina, Sardor, Tohir, Muhiddin, Madina, Ruslan, Imronlarni oq yuvib, oq tarab tarbiyalamoqda.

— Ularning toʻrt nafarini katta hayot — oʻqishga, ishga kuzatdik, — deydi Joʻraxon opa. — Toʻrt nafari yonimizda, behad shukr, toʻrt bolamiz oʻn ikkita boʻldi, bolalarning sport toʻgaraklari, chet tillarni, tikish-bichish, hunar oʻrganishlarini tinmay nazorat qilamiz. Voyaga yetib har birlari munosib taʼlimli, kasb-hunarli boʻlsalar yaxshi-da.

Chor tarafi gulzor, ozoda hovlidagi soʻrda oʻtirgan bolalarga qarab, mehru ezgulik saodat yaratadi degan qadimiy hikmatga ishongimiz keladi. “Shuhrat” medali, “Moʻtabar ayol” koʻkrak nishoni sobibi Joʻraxon opa va uning umr yoʻldoshi Bahodir aka har bir farzandining yaxshi fazilatlarini, yil boʻyi olgan baholarini, taqdirlangan “Faxriy yorliq”lari haqida mehm bilan soʻzlashlarini tinglab, shu ikki aziz inson oʻnlab nabiralarga ertaklar aytib, uzoq yillar umrguzaronlik qilishlarini niyat qildik. Umuman, sirdaryoliklar bilan oʻtgan har bir kunda bagʻrikeng, samimiy xalqning isteʼdodli farzandlari yutuqlariga guvoh boʻldik. Bugunidan koʻngli toʻq, ertasidan orzu-niyatlari moʻl insonlarning bayram kayfiyatlariga baholi qudrat quvonch qoʻshganimiz uchun shukronalik tuydik.

Xabaringiz bor, yoshlar mutolaa madaniyatini yuksaltirish, kitobxonlikni keng targʻib qilish borasida oʻtkazilayotgan “Yosh kitobxon” tanlovi oʻtgan toʻqqiz yil mobaynida butun mamlakat yoshlarini qamrab oldi, eng chekka hududlarda ham kitobga, adabiyotga boʻlgan ixlos munosib baholannomoqda. Tanlovda qatnashgan olti millionga yaqin yoshlar — maʼrifat gʻunchalarining mamlakat ijtimoiy-siyosiy, madaniy-maʼrifiy hayotida oʻz oʻrni bor.

Tanlovning ilk qaldirgʻochlaridan biri — Guliston davlat universiteti tadqiqotchisi, “Mard oʻgʻlon” davlat mukofoti sovrindori Yorqinjon Hayitboyev tashabbusi bilan yiloyatda oʻtayotgan “Mutolaa marasii”, “Mutolaa maydoni” loyihalari koʻplab yangi nomlarni elga tanitmoqda.

Yosh olim “Toʻra Sulaymon poetikasi” mavzusida ilmiy tadqiqot olib bormoqda. Uning “maʼrifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy bundan yuz yil ilgari “Har bir millatning dunyoda borligʻini koʻrsatadurgʻon oʻyinai hayoti tili va adabiyotidir. Milliy tilni yoʻqotmak, millatning ruhini yoʻqotmakdir” degan hikmatli taʼbiriga Toʻra Sulaymonning oʻlti satrikorni ilmiy tadqiq qilish bilan munosib javob bermogʻchimam”, degan soʻzlarida bugungi yoshlarning shijoati bor.

Agar koʻrmogʻ istasangiz

Sirdaryoning kamolini, Gulistonning, gul shaharning toʻlin oydek jamolini.

Yaratgandan tole soʻrab,

tilab yorugʻ iqbolini —

Keling, bir kun boʻling mehmon

Sirdaryoning boʻylarida.

Gulistondagi bayram tantanalaridan qaytar ekanmiz, shoira Hayotxon Ortiqboyevaning yuqoridagi satrlarini baralla takrorlaymiz. Barchamiz yaratuvchanlik, bunyodkorlik fazilatlarini ziynat bergan muazzam yurtga fayz, elining umriga baraka tilaymiz.

Mulohaza

BILIMLI AYOL – JAMIYAT UCHUN MUHIM RESURS

Bilimli, oʻqigan va fikrlaydigan ayol oʻz qadrini biladigan, hayotga erkin nioh bilan qaraydigan, muammolarga hissiyot bilan emas, balki aql ila yechim topadigan shaxsdir.

Kuch ishlatish yoki janjal bilan erishib boʻlmaydigan natijalarni dono ayol sabr, ilm va toʻgʻri soʻz bilan qoʻlga kiritadi. Oʻqigan ona tarbiyalagan farzand ilmiy, dunyoqarashi keng boʻladi. Bunday ayol oilasida ham, jamiyatda ham tinchlik, totuvlik va rivojlanishga hissa qoʻshadi.

Bugun yangi Oʻzbekistonda ayol shugʻullanmagan sohani topish qiyin. Uning qiyofasi intellektual kuch va ruhiy sezgirlikning ajoyib namunasidir. U raqamli texnologiyani puxta egallaydi, oʻylaydi va zamon qiyinchiliklariga dadil javob beradi. Shu bilan birga, uyi va yaqinlarini istadigan oʻsha bebaho mehm omborining sodiq qoʻriqchisi boʻlib qoladi.

Ajdodlarining koʻp asrlik merosiga chuqur hurmat asosida tarbiyalangan zamonaviy oʻzbek ayoli global oʻzgarishlarga ochiq

boʻlib, milliy qadriyatlarni ulugʻlaydi. Mustaqillik davrida u nafaqat tarix guvohi, balki uning faol ijodkori, ishtirokchisiga aylandi. Aynan uning bunyodkorlik gʻayrati, Vatanga muhabbati suveren davlatimiz gullab-yashnashining harakatlantiruvchi kuchlaridan biridir.

Ayni damda ayollarning jamiyatdagi oʻrni har qanday taʼrifdan yuqori. Ular endi moslashishga emas, his qilish, tushunish va oʻzgartirishga intiladi. Bu ijod, haqiqatni oʻz qadriyatlariga moslashtirish orqali yetakchilikka intilish jarayonidir.

Dunyo cheksiz raqamli shovqin bilan yugurayotgan bir paytda u sekinlashish uchun jasorat topadi. Zamonaviy ayol shunchaki tarix guvohi emas. U hozir yuzaki chuqurlik va befarqlikdan koʻra hamdardlikni tanlab, ertamiz qanday boʻlishini hal qiladigan odam. Bu tanlov uchrashuvlarda emas, balki uning fikrlari, his-tuygʻulari va qoʻlida tutgan kitoblari aks etadi.

Kitob oʻqigan ayol katta empatiya zaxirasini toʻplaydi. Empatiya boshqa odamning hissiy holatini ogʻri ravishda tushunish, unga hamdard boʻlish va oʻzini



uning oʻrniga qoʻyish qobiliyatidir. Bu boshqalarning quvonch, qaygʻu, ogʻriq kabi his-tuygʻularini, ularning tashqi kelib chiqishini yoʻqotmasdan tan olish. Empatiya ishonchli munosabatlarni oʻrnatish,

odamlarning motivlarini yaxshiroq tushunish va nizolarni hal qilishga yordam beradi. Demak, kitobxon ayol minglab odamlarning hayotini kitob sahifalariga yashab, bu tajribani haqiqatga aylantiradi.